



MUHAMMAD YUSUF'S POEMS, TRANSLATED INTO KARAKALPAK, GIVING PROVERBS

Eshboeva Matluba

NSPI basic doctoral student

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15657247>

ARTICLE INFO

Received: 06th June 2025

Accepted: 12nd June 2025

Online: 13rd June 2025

KEYWORDS

Originality, translation, translator, proverb, sister languages, language, style.

ABSTRACT

This article presents an analysis of the role of proverbs in the poems of Muhammad Yusuf and how proverbs were used in the translations of poems into the Karakalpak language.

MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARI QORAQALPOQCHA TARJIMASIDA MAQOLLARNING BERILISHI

Yeshboyeva Matluba

NDPI tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15657247>

ARTICLE INFO

Received: 06th June 2025

Accepted: 12nd June 2025

Online: 13rd June 2025

KEYWORDS

Asliyat, tarjima, tarjimon, maqol, qardosh tillar, til, uslub.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Muhammad Yusuf she'rlarida maqollarning ishlatilgan o'rni haqida hamda she'rlarning qoraqalpoq tiliga qilingan tarjimalarida qay tarzda maqollarning o'girilganligi haqidagi tahlil bayon etilgan.

Xalq og'zaki ijodining eng sermahsul turi bu maqollardir. "So'z san'atining mahsuli sifatida maqollar ham badiiyat hodisalaridir", - deydi T.Mirzayev¹. Maqollar otabobolarimizning turmush tarzidan, hayotiy tajribasidan kelib chiqqan xulosaviy gaplari. Nafaqat xulosaviy, balkim ularning katta bir mo'jizaga boy soddagina gaplaridir. Tarjimashunos olim G'.Salomov shunday deb yozadi: "Agar mendan: tilda ham mo'jizalar bo'ladimi? - deb so'rasalar, men, agar bo'lsa, tilning "mo'jizasi" undagi maqol, matal va idiomalardir, deb javob qilgan bo'lar edim. Chindan ham, gapning qaymog'i, shirini, olam-olam ma'no beradigani va shu bilan birga, lo'ndasi maqol-matallardir"². Shoir va yozuvchilar o'z asarlarida maqollarni qo'llaganlar va bu orqali ular ta'sirchanlikni, hissiylikni, ifodalilikni oshirganlar. XI asrda bitilgan eng mashhur asarlardan biri Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida

¹ O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2016. – B. 7.

² Salomov G'. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Adabiyot, 2023. – B. 10.



ham “Men bu kitobni maxsus alifbe tartibida, hikmatli soʻzlar, saʼjlar, maqollar... bilan bezadim” deyilgan³.

Muhammad Yusuf ham oʻz sheʼrlarida maqollardan unumli foydalanganlar. Shoirning qoraqalpoq tiliga oʻgirilgan tarjimalarida maqollarning qay tarzda oʻgirilganligini tahlil qilamiz. Muhammad Yusufning sheʼrlari qoraqalpoq tiliga tarjima qilingan. Seytayev qilgan tarjimalardan ozginasi nashr qilingan. Nashrdan chiqmagan tarjimalar ham mavjud boʻlib, biz uni shoir rafiqasi shoira Nazira Salomovadan oldik. Rafiqasidan Altingul Uteniyazovaning ham qilgan tarjimasini oldik va qoʻlyozma manba qilib ushbu tahlilda foydalandik. Maqollarni 2 xil usulda sheʼrlarida ishlatganlar:

1. Maqollarni hech qanday oʻzgarishsiz qoʻllash
2. Maqollarni ayrim leksik yoki grammatik oʻzgarish orqali qoʻllash.

Bunga koʻra mutarjimlar qay usulda oʻgiranlarini tahlilga tortamiz. Muhammad Yusufning “Terma” sheʼri Bazarbay Seytayev hamda Altingul Uteniyazovalar tomonidan tarjima qilingan. Seytayev “Terme” deb, A.Uteniyazova esa “Terme qosiq” tarzida oʻgiran. Asliyatda:

*Yomon koʻz tosh yorar der
Yomon doʻst bosh yorar der*⁴

“Oʻzbek xalq maqollari” (keyingi oʻrinlarda OʻXM)da “Yomon koʻz tosh yoradi, Yomon doʻst – bosh” tarzida keltirilgan⁵. Bunga koʻra bu 2-turga mansub. Seytayev tarjimasida:

*Kózi qatti tas jarar,
Jaman dostiń bas jarar* (Qoʻlyozma manba, 67-68.)

Uteniyazova tarjimasida:
*Jaman kóz tas jarar der,
Jaman dos bas jarar der* (Qoʻlyozma manba, 11-12.)

tarzida oʻgirilgan. Seytayev tarjimasida “der” feʼli olinib tashlangan. “Yomon koʻz” birikmasining oʻrniga “Kózi qatti” birikmasi qoʻllanilgan. Uteniyazovaning tarjimasida esa xuddi asliyat kabi oʻgirilgan.

Asliyatda:
*Yomon erkak toʻy buzar der
Yomon koʻz uy buzar der
Yomon boʻlsa yoʻldoshing
Bor baxting ham toʻzar der.* (Saylanma, 180.)

Seytayev tarjimasida:
*Jaman erkek toy buzar,
Jaman qız úy buzar,
Jaman bolsa joldasiń,*

³ Toʻxliyev B. Oʻzbek adabiyoti. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2000. – B. 63.

⁴ Muhammad Yusuf. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2019. – B. 180.

⁵ OʻXM. – B. 72.



Bar baxtiń da tozar der (Qo'lyozma manba, 70.)

Uteniyazova tarjimasida:

Jaman erkek toy buzar,

Jaman kóz úy buzar der.

Jaman bolsa joldasiń,

Bar baxtiń da tozar der. (Qo'lyozma manba, 12.)

tarzida berilgan. O'XM da "Yomon erkak to'y buzar, Yomon xotin – uy" shaklidagi maqol uchraydi. Shoir maqolni leksik jihatdan o'zgartirib qo'llagan. Mutarjim Seytayeov esa xuddi shu maqol kabi ya'ni "der" fe'lini olib tashlagan holda hamda asliyatda ishlatilgan "ko'z" so'zi o'rniga, maqoldagi kabi "qiz" kabi tarjima qilgan. Uteniyazova esa asliyatga muvofiq tarzda tarjima qilgan. Qoraqalpoq xalqida ham "Jaman jigit toy buzar, Jaman qatin úy buzar" maqoli bor⁶. She'rda aslida "Yomon bilan bo'lsang yo'ldosh, Oxir boshingga tegar tosh", "Yomonga yaqinlashsang balosi yuqar" maqollariga muqobil tarzda ishlatilgan. Qoraqalpoq xalqida ham shu maqolning ma'nosini beruvchi "Jaman menen úyir bolma, Aqiri basińa jeter" maqolning mavjudligi, ammo tarjimon shoirning yuqoridagi misralarini ham xuddi asliyat kabi tarjima qilgan. Tarjimon she'rda qay tarzda kelgan bo'lsa, ma'no va shaklni o'zgartirmagan holda o'giran.

"Bobodehqonim" she'rda quyidagicha misralar bor:

Arpa ekkan arpa o'rar,

Bug'doy ekkan – bug'doyin. (Saylanma, 206.)

O'XM da esa "Arpa ekkan arpa olar, Bug'doy ekkan bug'doy olar" ⁷, "Har kim ekkandin o'rar", "Nima eksang, shuni o'rasan" kabi maqollar mavjud. Bu maqollar ma'nosi bir-biriga juda ham yaqin bo'lib, tarjimon ham xuddi shoir kabi tarjima qilgan:

Arpa ekken arpa orar,

Biyday ekken – biydayin. (Qo'lyozma manba, 85.)

Qoraqalpoq xalq maqollarida ham xuddi o'zbek tilidagi kabi "Arpa ekken arpa, biyday ekken biyday alar"⁸, "Berseń alarsań, Ekseń orarsań", "Neni ekseń, Sonı orarsań" kabi maqollar mavjud.

"Olisdagi qadrdon" she'rda:

So'z otilgan o'q ekan,

Bag'ir yoqar cho'g' ekan (Saylanma, 132.)

misralari mavjud bo'lib, "Aytilgan so'z – otilgan o'q" maqolining ma'nosi beradi. ⁹

Tarjimada:

Sóz atilgan oq ekan,

⁶ Naqil-maqallar, jumbaqalar. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2021. – B. 46.

⁷ O'XM. – B.

⁸ Qaraqalpaq tiliniń túsindirime sózligi. Nókis: Qaraqalpaqstan, 2023. – B.181.

⁹ O'XM. –B.99.



Bawiri janġan shoq eken.

Qoraqalpoq xalqida ham “Aytılġan sóz – atılġan oq” maqoli mavjud.¹⁰ Mazmuni saqlangan holda maqoldan foydalangan, ammo maqoldagi “aytilgan” so‘zi tushib qolgan hamda “ekan” to‘liqsiz fe‘li qo‘shilgan. Asliyatdagi birinchi misra xuddi o‘zi kabi o‘girilgan, ammo ikkinchi misrada o‘zgarish mavjud. Ya‘ni so‘z – bu otilgan o‘q hamda bag‘irni yoqadigan cho‘g‘ degan ma‘no anglashilyapti. Lekin tarjimada esa so‘z – bu otilgan o‘q hamda bag‘ri yongan cho‘g‘ ma‘nosi kelib chiqmoqda. Shunga ko‘ra ikkinchi misrasida xatolik borligini aytib o‘tmoq lozimligini ma‘qul topdik.

“Palaxmon” she‘r:

Yig‘lama, yor, qiz bola

Palaxmonning toshidir (Saylanma, 74)

Uteniyazova tarjimasida “Palaxpan” tarzida keltirilgan. Ammo qoraqalpoq tilida “Palaqpan” so‘zi mavjud bo‘lib, tarjimon imlo jihatdan noto‘g‘ri qo‘llagan:¹¹

Jilamaġil, qiz bala,

Palaxpanniń tasidur (Qo‘lyozma manba, 9)

O‘XM da “Ayol degan palaxmon toshi, Qayerga otsa, shu yerga tushar”¹² maqoli mavjud bo‘lib, shoir buni mohirona tarzda ishlatgan. Ammo qoraqalpoq tiliga shu ma‘noga o‘xshash ma‘nodagi maqol topilmadi. Shunday bo‘lsa ham, tarjimon asl nusxa kabi o‘g‘irgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, maqollar nafaqat so‘zimizni, balki she‘riyatni ham bezovchi unsur ekanligini shoirimiz Muhammad Yusufning go‘zal namunalarida dalillab ko‘rsatgan. Barcha shoirlar ham xalq og‘zaki ijodi namunasi – maqollarga murojaat qiladi deb ayta olmaymiz. Buni Muhammad Yusufning o‘z uslubi, tili, xalqchilligi dyish mumkin. Tarjimonlar ham o‘z bilimi, mahorati, iste‘dodlarini ishga solgan holda tarjima qilganlarki, asl nusxada anglashilgan ma‘no-mazmun, undagi ifodaviylik, hissiylik tarjima ishlarda ham o‘z aksini topgan.

References:

1. Muhammad Yusuf. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2019. – B. 286.
2. Naqil-maqallar, jumbaqar. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2021. – B. 160.
3. Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózligi I tom. Nókis: Qaraqalpaqstan, 2023. – B. 400.
4. Qaraqalpaq xalıq-maqalları. Nókis: Qaraqalpaqstan, 1995. – B.72.
5. Salomov G‘. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Adabiyot, 2023. – B. 558.
6. To‘xliyev B. O‘zbek adabiyoti. – Toshkent: O‘qituvchi, 200. – B.286 .
7. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2016. – B.512.

¹⁰ Qaraqalpaq xalıq naqıl-maqalları. Nókis:Qaraqalpaqstan, 1995. – B.46.

¹¹ Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózligi. Nókis: Qaraqalpaqstan, 2023. – B.11.

¹² O‘XM. – B.484.